

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI

BITIRUVMALAKAVIYISHI

MAVZU: O‘zbek tilining izohli lug‘ati tarkibidagi arabcha o‘zlashgan masdarlar (sifat) ning fonetik va semantik xususiyatlari haqida

Bajardi: “Arabfilologiyasi” kafedrasining 4-kurs talabasi

G.M.Xolmatova_____

(imzo)

Ilmiy rahbar:

“Arabfilologiyasi” kafedrasining o‘qituvchisi

N.M.Orifxo‘jayev_____

(imzo)

Ilmiy maslahatchi: “Arabfilologiyasi” kafedrasining mudiri filologiya fanlari doktori,
professor Sh.G‘.Shomusarov_____

(imzo)

TOSHKENT-2018

Bitiruvmalakaviyishihimoyagatavsiyaetildi

“Sharqfilologiyasi ”

fakultetidekani

f.f.d.Q.Sh.Omonov

“ ____ ” _____ 20 ____ yil

“Arabfilologiyasi”

kafedrasimudiri

f.f.d., prof. Sh.G‘.Shomusarov

“ ____ ” _____ 20 ____ yil

MUNDARIJA:

KIRISH

ASOSIY QISM

I BOB. Arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan masdarlarning fonetik xususiyatlari.

1.1. Arab adabiy tilining qisqa va cho‘ziq unli fonemalari va ularning izohli lug‘atda ifodalanishi.

1.2. Arab adabiy tilidagi ayrim undosh fonemalarining izohli lug‘atda aks ettirilishi.

1.3. Arab adabiy tilidagi “ ξ ” va hamza [ء] undosh fonemalarining o‘zbek tilida ifodalanishi.

II BOB. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” tarkibidagi arabcha o‘zlashma masdarlarning semantik tahlili.

2.1. Arab va o‘zbek tillarida bir ma’noni anglatuvchi o‘zlashgan masdarlar tahlili.

2.2. Ma’nosi kengaygan va toraygan o‘zlashma masdarlar tadqiqi.

2.3. O‘zbek tilida ma’nolari butunlay o‘zgargan o‘zlashma masdarlar.

2.4. Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘llanilmaydigan arabcha o‘zlashma masdarlar haqida.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

ILOVA

KIRISH

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z tili, madaniyati, qadriyatlari, tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. O'zlikni anglashda tilning roli muhimdir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov bu haqda to'xtala turib, «...ajdodlardan o'tib kelayotgan ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz»¹, - deya ta'kidlagan edilar.

Hozirgi paytda jamiyat taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida tillararo so'z omuxtalashish jarayoni jadallashmoqda. Bunday jarayon o'zbek tili leksikasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, tilimizning o'zlashma so'zlar hisobiga boyishiga sabab bo'lmoqda. Shunday ekan o'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti, lug'at tarkibi, undagi o'zlashma qatlamni tadqiq etish va o'rganishni dolzarb deya olamiz.

Istiqlol davrida yaratilgan barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bimalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar o'z kelajaklari uchun mustahkam poydevor yaratmoqdalar. Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrni bildirib o'tadilar: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi

¹Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch". - Toshkent:Ma'naviyat, 2008. B. – 87.

sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz²".

Biz yoshlarga yaratib berilgan imkoniyatlar amalda o'z ifodasini topmoqda. Jumladan, endilikda biz arab tilini mukammal o'rgangan holda, bu tilning ona tilimizning leksik taraqqiyotidagi tutgan o'zni va ahamiyatini chuqurroq bilish, imkoniyatiga ega bo'ldik.

Mavzuning dolzarbligi. Tilshunoslarimiz tomonidan leksikologiyani tadqiq etishning lison va nutq farqlanishi asosidagi vazifalari yetarlicha bajarilib, keyingi bosqichi esa o'zbek tilining sistemaviy (ideografik) lug'atini yaratishga qaratilgani ta'kidlanadi³. Shunga muvofiq galdagi ishlar o'zbek tili leksikasidagi o'zlashma so'zlarni aniqlab olish, ularni lug'atlarga olib kirish, leksik guruhlar va mikrosistemalarni tizimli o'rganish, o'rganilgan ishlarni kattaroq guruhlarda birlashtirish kabi vazifalardan iborat bo'ladi. Shunga ko'ra biz tadqiq qilayotgan ushbu bitiruv malakaviy ishini yuqoridagi vazifalarning bir qismi deya olamiz.

Mazkur ish o'zbek tili leksikasidagi arabcha o'zlashma masdarlar va ularning fonetik-semantik xususiyatlarini tadqiq etish masalasiga qaratilgan. Buning uchun esa "O'zbek tilining izohli lug'ati" tarkibidagi arabcha masdarlarning ona tilimizda tutgan o'zni, ulardagi fonetik o'zgarishlar va ma'no taraqqiyotining talqini kabi vazifalarni yoritish mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Arab lug'aviy o'zlashmalari 1950-yillar arafasida F.Abdullayev, 1990-yillarda T.Rahmonov tomonidan ham o'rganilgan. Xususan, F.Abdullayev o'zbek tili lug'at tarkibidagi arab o'zlashmalariga o'sha davr mafkurasi ta'sirida salbiy hodisa sifatida qaragan, ular ruscha muqobillar evaziga zo'rma-zo'raki almashtirishga harakat qilingan. T.Rahmonovning nomzodlik dissertatsiyasida hozirgi o'zbek tilidagi bir qator arabcha so'zlarning semantik tuzilishi tadqiq etilgan. Unda ayrim arabcha so'zlarning ko'p ma'noligini sharhlash bilan cheklangan.

² Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: "O'zbekiston", 2016. -B.14.

³Hamrayeva Y. O'zbek tilining o'quv ideografik lug'atini yaratish tamoyillari: Filol. fan. nomz....diss. avtoref. – T., 2010. –B.16.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishining tadqiq obyekti "O'zbek tilining izohli lug'ati" tarkibidagi arabcha o'zlashma masdarlar tashkil qiladi. O'zbek tilidagi arabcha o'zlashma masdarlarning fonetik xususiyatlari va mano taraqqiyotini o'rganish ishning predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Mazkur bitiruv malakaviy ishida o'zbek tilining izohli lug'ati tarkibidagi arabcha o'zlashma masdarlarni alohida ajratishva ularning fonetik hamda semantik xususiyatlarini tadqiq etish asosiy maqsad qilib olindi. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- izohli lug'atdagi arabcha o'zlashma masdarlarni aniqlash va ularni fonetik-semantik jihatdan tadqiq qilish;
- o'zlashma masdarlarning unli va undosh fonemalarini aniqlash va tahlil qilish;
- o'zlashma masdarlarning ma'nosidagi o'zgarishlarni aniqlash va tavsiflash;
- o'zlashma masdarlarning ma'no kengayish va torayish hodisalarini tahlil qilish.

Tadqiqot usullari. Ishda tadqiq usuli, asosan, lug'at sistemasining tizimli tadqiq usuli hisoblanadi, shuningdek, sistem-struktur tilshunoslikning zidlash, komponent(semik) tahlil qilish, qiyoslash, tavsiflash, tasniflash kabi usullaridan ham foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida umumlashtirilgan ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalardan, eng avvalo, yangi tipdagi o'zbek tili lug'atlarini mukammallashtirishda, ulardagi tavsif va sharhlarni bir xillashtirishda keng foydalanish mumkin. Bitiruv malakaviy ishi materiallari o'zbek tilining leksik sistemasidagi mikrosistemalarni sistemaviy tadqiq qilishda ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari, undagi materiallar o'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi bo'yicha yaratiladigan darslik va qo'llanmalar, maxsus kurslar uchun qo'shimcha material, shuningdek, o'zbek tilining zamonaviy lug'atlari uchun muhim material va manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotdano‘zbek va arab tillarining qiyosiy leksikologiyalarini yaratishda, tillarning o‘zaro ta’siri masalasini yaqqolroq ochib berishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” tarkibidagi arabcha o‘zlashma masdarlar ilk bor ilmiy tahlil qilindi. Ularning fonetik-semantik tadqiqi natijasida arabcha o‘zlashma masdarlarning fonetik xususiyatlari o‘rganildi va ro‘y bergan o‘zgarishlar tavsiflandi. Ularning semantik xususiyatlari yoritildi. Mazkur lug‘at tarkibida arabcha o‘zlashma masdarlarning berilishidagi muammolar aniqlandi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Ish kirish, ikki asosiy bob, xulosa, tadqiqot davomida foydalanilgan arabcha masdarlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, Temis New Roman shriftining 1,5 intervali 14 kegel kattaligida ____sahifani tashkil etadi.

I BOB. Arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan masdarlarning fonetik xususiyatlari

O‘zbek tili o‘zining ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida lug‘at tarkibini o‘z ichki manbalari hisobiga boyitib, takomillashtirib keldi. Bunday qonuniyatga ko‘ra, o‘z qatlam negizlari asosida yangi so‘zlar yasaldi, mavjud so‘z ma’nolari kengaytirildi, ba’zi so‘zlarga qo‘shimcha vazifalar yuklandi, adabiy tilga xalq shevalaridan turli davrlarda, ehtiyojga ko‘ra, so‘zlar qabul qilindi.

O‘zbek tili lug‘at tarkibining boyishida ichki manba imkoniyatlari muhim asos hisoblanadi. Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til o‘z ichki manbalarigagina tayanib ish ko‘rmaganidek, o‘zbek tili uchun ham faqat o‘z so‘zlari, o‘z qatlam boyligi va imkoniyatlarigagina kifoya qilmaydi. O‘zbek tili lug‘at tarkibining boyish va takomillashuvida tashqi manba muhim rol o‘ynaydi. Umuman har qanday til sof holda yashay olmaydi. Turli tillarning turli tarixiy sharoitlarda o‘zaro ma’lum munosabatda bo‘lishi tabiiy holdir. Bunday munosabat aloqada bo‘lgan tillar rivojida ayniqsa uning lug‘at tarkibida ma’lum izlarni qoldirishi mumkin.

Ma’lumki, o‘zbek tili leksikasining o‘zlashma qatlami, asosan, arabcha, fors-tojikcha, ruscha so‘zlardan iborat. “Olimlarning hisobiga qaraganda, ba’zi turkiy tillar lug‘at tarkibining 30-35 foizini arab so‘zlari tashkil qiladi. Poetik nutqda esa forsiy elementlarni ham qo‘shib hisoblaganda, bu miqdor 95 foizga yaqinlashadi”⁴.

Shu o‘rinda o‘zlashma so‘zlarga ta’rif berib o‘tsak. Tilshunos olimlar bunday leksemalarga quyidagicha ta’rif berishadi: “O‘zlashma so‘z bu chet tilidan ko‘chgan leksema bo‘lib, o‘zlashtiruvchi tilning fonetik, leksik-semantik, grammatik qobig‘iga bo‘ysungan bo‘ladi”⁵.

O‘zlashma so‘z ma’lum talablarga bo‘ysungan bo‘lishi kerak, jumladan:

1. O‘zlashgan so‘z o‘zbek tili qonuniyatlariga bo‘ysunadi.

⁴ Eshonqulov.B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida arabcha lug‘aviy o‘zlashmalarning paradigmatic assimetriyaga munosabati. –T.,1996.-B. 20.

⁵ Jumaniyozov. O. O‘zbek tilidagi german tillari o‘zlashmalari. - T., 1982, -B. 13.

2. O‘zbek tilining leksik-semantik tizimiga bog‘langan, unga singgan bo‘ladi.

3. O‘zlashgan so‘z xuddi asl o‘zbek so‘zidek tabiiy va aniq bo‘ladi, undan shubhalanish, uni boshqa so‘zlar bilan qorishtirish xavfi yo‘qoladi.

4. Uning yot til elementi ekanligi sezilmaydi.

5. O‘zlashgan so‘zning tez iste‘moldan chiqib ketish ehtimoli bo‘lmaydi va hokazolar.

Boshqa tildan so‘z olganda, albatta, muayyan me‘yor saqlanishi shart, shubhasizki, bu me‘yor tilning yaxlit so‘z zaxirasini mehvaridan chiqarib yubormaslik uchun xizmat qiladi. Shuni ham alohida ta’kidlamoq joizki, boshqa tildan me‘yorni saqlagan holda olinadigan so‘z oluvchi tilning fonetik qonuniyatlariga moslashtirishi maqsadga muvofiq. Mashhur olmon tilshunosi Herman Paul o‘zlashma so‘zning tarkibi ona tilining tovush materialidan tarkib topgandan keyin u ona tilida fuqarolik huquqini kasb etishini alohida ta’kidlaydi. Fitrat ham xorijiy so‘zni ona tili qonuniyatlariga muvofiq tarzda qo‘llash lozimligini so‘z o‘zlashtirishning asosiy shartlaridan biri deb hisoblaydi: “...Turkchasi topilmagan so‘zlar va istilohlar bor esa, ularni chiqarib tashlab, o‘runlarini bo‘sh qo‘yayliq demayman. Turkchasi topilmagan so‘zlar va istilohlar qolsun, biroq turkchanning buyrug‘i ostida kirib qolsun, boshqacha turli aytqanda, Fransada yashagan bir turk kabi bo‘lundig‘i turkchanning qonunlarig‘a bo‘ysunib yashasun, turkchada turg‘an bir fransuzdek “kapitulatsion” asrori ostida turmasun”.

Boshqa bir qator tillar, masalan, arab tili o‘zga tildan so‘z olganda uni, albatta, o‘z qonuniyatlari ostiga kiritadi, natijada uning xorijiy so‘zligi ham bir qarashda bilinmay ketadi. Masalan, o‘zbek tilidagi qonun so‘zi arabchadan o‘zlashtirilgan va bu so‘zning fonetik tarkibi shundayligicha o‘zbek tili fonetik qonuniyatlariga mos keladi. Ammo bu so‘z sof arabcha emas, u yunon tilidagi kanon so‘zining arab tili fonetikasiga moslab, ya’ni qonun shaklida o‘zlashtirilgan ko‘rinishidir.

O‘zbek tili leksikasining arabcha so‘zlar qatlami tarixiy-an‘anaviy usulda o‘zlashgan. “Arabcha so‘zlarning o‘zlashtirilishi VIII asrdan boshlanib,

IX-X asrlargacha ancha faollashgan. Arab tilidan soʻz oʻzlashtirishga olib kelgan omillar quyidagicha : avvalo, arablar istilosi, islom dinining keng tarqalishi, qolaversa, arab yozuvining qoʻllana boshlanganligi, madrasalarda arab tili oʻqitilib, olim-u fuzalolarning arab tilida ijod qilishi, turkiy-arab ikki tilligining tarkib topganligi”⁶.

Arab tilidan oʻzlashtirilgan soʻzlarning fonetik, semantik va morfemik tarkibida quyidagi xususiyatlar borligi koʻzga tashlanadi:

1. Soʻz tarkibida ikki unlining yonma-yon kelish holati uchraydi: mutolaa, oila.
2. Raʼno, daʼvo, taʼna, eʼlon kabi soʻzlarda “ ع ” tovushidan oldingi unli kuchli va biroz choʻziq aytiladi.
3. Jurʼat, surʼat, bidʼat, qalʼa kabi soʻzlarda boʻgʻinlar ayirib talaffuz qilinadi.
4. Semantik jihatdan: koʻproq diniy, hissiy, axloqiy, ilmiy, taʼlimiy va mavhum tushunchalar ifodalanadi.
5. Soʻzlarning lugʻaviy va grammatik shakllari flektiv xarakterda boʻlib, oʻzbek tilida morfemalarga ajralmaydi: ilm, muallim, olim.

Oʻzbek tili leksikasidagi baʼzi oʻzlashmalar poetik jihatdan boshqacha qiyofaga kirib, ularning aslida arabcha soʻzlar ekanligi unutiladi.

Chet el soʻzlari boshqa bir tilda qoʻllansa-da, ularning barchasi oʻzlashma lugʻaviy birlik maqomida boʻla olmaydi. Chet soʻzlarning oʻzlashish va oʻzlashmaslik hollari mavjud. A.A.Reformatskiy oʻzga til soʻzlarning oʻzlashish va oʻzlashmaslik chegaralarini farqlashda ularning oʻzlashgan tilning fonetik va grammatik qonuniyatlariga boʻysunish-boʻysunmaslik darajasini hisobga oladi. Chin maʼnoda oʻzlashgan soʻzlar boshqa tilning fonetik va grammatik qonuniyatlari taʼsiriga beriladi, oʻzlashmagan chet soʻzlar bunday taʼsirga berilmaydi.

⁶Jamolxonov N. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: Oʻqituvchi, 2005. –B. 196.

Masalaga mazkur nuqtayi nazar asosida yondoshilganda, o'zbek tili leksikasidagi arabcha so'zlarning barchasini o'zlashgan desak, xato bo'lmaydi. Chunki arab o'zlashmalarining deyarli barchasi o'zbek adabiy tilining fonetik va grammatik qonuniyatlari ta'siriga beriladi, ayniqsa, ular turlanish sistemasida o'zbek tilining o'z so'zlari bilan teng maqomda ishtirok etadi, zero ular chin ma'noda o'zlashgan lug'aviy birliklardir.

1.1. Arab adabiy tilining qisqa va cho'ziq unli fonemalari va ularning izohli lug'atda ifodalanishi

Ma'lumki, arab tilida uchta qisqa va cho'ziq unli fonemalar bor. Arab tilidagi qisqa unli fonemalar "a", "i", "u" o'zbek tilidagi "a", "i", "u" fonemalariga o'xshashdir. Cho'ziq unli fonemalar esa qisqalariga sifat jihatidan mos keladi, faqat ulardan artikulyatsiyani ko'proq cho'zish bilan farq qiladi. Arab tilida undosh fonemalar unli tovushlarning talaffuziga ta'sir qiladi. Shu boisdan unli fonemalar undosh fonemalarning xususiyatiga qarab yoki o'zgarishsiz, ya'ni fonema sifatida, yoxud vaziyatga qarab fonemaning varianti sifatida talaffuz qilinadi⁷.

Lug'atda "a" qisqa unli fonemasi⁸ mavjud bo'lgan arabcha o'zlashma so'zlar deyarli o'zgarishsiz aks ettirilgan. Masalan:

adam	['adam]	عدم
barq	[barq]	برق
vazn	[vazn]	وزن
dars	[dars]	درس
jalb	[jalb]	جلب
zarb	[ɖarb]	ضرب
kasal	[kasal]	كسل
madh	[madħ]	مدح

⁷Rustamova S. "Arab tilining fonetikasi". T., 2000, -B. 13.

⁸Arabcha so'zlarni yozishda arab tili darsliklaridagi transkripsiyadan foydalandik.

najot	[najā]	نَجَاة
salomat	[salāma]	سَلَامَة

Ayrim hollarda esa “a” qisqa unli fonemasi “i” fonemasiga o‘zgargan:

shijoat	[shajā‘a]	شَجَاعَة
xijil	[xajal]	خَجَل

Izohli lug‘atda “i” qisqa unli fonemasi, mavjud bo‘lgan arabcha o‘zlashma masdarlarda o‘zgarishsiz berilgan bo‘lsa-da, muayyan so‘zlarda mazkur fonema o‘zbek tilining lablashgan til oldi, o‘rta keng “e” fonemasi bilan ifodalangan.

Masalan:

fe‘l	[fi‘l]	فَعْل	e’tiqod	[‘i‘tiqād]	اِعْتِقَاد
tanbeh	[tanbīh]	تَنْبِيْه	ehtiyoj	[‘ih̄tiyāj]	اِحْتِيَاْج
talmeh	[talmīh]	تَلْمِيْح	e‘lon	[‘i‘lān]	اِعْلَان
sehr	[sihr]	سَحْر	e’tibor	[‘i‘tibār]	اِعْتِبَار
tasbeh	[tasbiḥ]	تَسْبِيْح	ehson	[‘ih̄sān]	اِحْسَان

Bunday tovush o‘zgarish asosan arabcha o‘zlashma so‘zlarning birinchi o‘zak harfi “ح” va “ع” undosh fonemalaridan yasalgan hosila so‘zlarda ko‘proq uchraydi. Ammo agar mazkur o‘zak harfini boshqa undosh fonemalar tashkil etsa, ular “i” unli fonemasi bilan beriladi. Masalan:

istiqbol	[‘istiqbāl]	اِسْتِقْبَال
imzo	[‘imḍā]	اِمْضَاء
imkon	[‘imkān]	اِمْكَان
ittifoq	[‘ittifāq]	اِتْفَاق
islom	[‘islām]	اِسْلَام
ikrom	[‘ikrām]	اِكْرَام
inqiroz	[‘inqirād]	اِنْقِرَاض
istiqlol	[‘istiqlāl]	اِسْتِقْلَال

Izohli lug‘atda arab tilining “u” qisqa unli fonemasi o‘zbek tilining lablangan, orqa qator, tor unli “u” fonemasi bilan ifodalangan bo‘lsa-da, ba’zi

o‘zlashma so‘zlarda mazkur fonema o‘zbek tilining lablanmagan, old qator, yuqori tor “i” unli fonemasi bilan aks ettirilgan. Masalan:

takomil	[takāmul]	تکامل
taomil	[ta‘āmul]	تعامل
tasodif	[taṣāduf]	تصادف
taqovul	[taqābul]	تقابل
tadorik	[tadāruk]	تدارك
tanosib	[tanāsub]	تناسب
tanosil	[tanāsul]	تناسل
tag‘ofil	[tag‘āful]	تغافل

Izohli lug‘atda arab tilining “u” qisqa unli fonemasi ba’zi o‘zlashma masdar va sifatdoshlarda o‘zbek tilining lablangan, orqa qator, o‘rta kenglikdagi “o” unli fonemasi bilan aks ettirilgan. Masalan:

bo‘hton	[buhtān]	بهتان
mo‘tabar	[mu‘tabar]	معتبر
mo‘jiza	[mu‘jiza]	معجزة
mo‘tadil	[mu‘tadil]	معتدل

Endi cho‘ziq “a”, “i”, “u” unli fonemalarini izohli lug‘atda aks ettirilishiga e’tibor bersak, ularni ifodalashda muayyan fonetik o‘zgarishlar mavjudligini ko‘ramiz. Jumladan, arab tilining “a” cho‘ziq unli fonemasi, qaysi pozitsiyada bo‘lishidan qat’iy nazar, u o‘zbek tilining lablashgan, orqa qator, keng unlisi “o” fonemasi bilan ifodalangan. Masalan:

saloh	[ṣalāh]	صلاح	davomat	[davāma]	دوامه
tavof	[ṭavāf]	طواف	aloqa	[‘alāqa]	علاقة
fasohat	[faṣāḥa]	فصاحة	jamol	[jamāl]	جمال
nisor	[niṣār]	نثار	izdihom	[‘izdiḥām]	ازدحام
isyon	[‘iṣyān]	عصيان	musobaqa	[musābaqa]	مسابقة

Izohli lug‘atda arab tilining “i” cho‘ziq unli fonemasiga ega bo‘lgan aksariyat arabcha o‘zlashma so‘zlar o‘zbek tilining lablashgan, til oldi, tor qisqa unli fonemasi “i” bilan aks ettirilgan. Masalan:

ta'lim	[ta'līm]	تعليم	natija	[natīja]	نتيجة
tahlil	[taḥlīl]	تحليل	nasihat	[nasīḥa]	نصيحة
tadbir	[tadbīr]	تدبير	xazina	[xazīna]	خزينة
basirat	[baṣīra]	بصيرة	tahrir	[taḥrīr]	تحرير

Izohli lugʻatda arab adabiy tilining “u” choʻziq unli fonemasi boʻlgan arabcha oʻzlashma soʻzlar esa oʻzbek tilining lablangan, orqa qator, tor qisqa unli fonemasi “u” bilan aks ettirilgan. Masalan:

hujum	[hujūm]	هجوم	zuhur	[zuhūr]	ظهور
qabul	[qabūl]	قبول	xusumat	[xuṣūma]	خصومة
xuruj	[xurūj]	خروج	sukun	[sukūn]	سكون
shuur	[shuʿūr]	شعور	zarurat	[ḍarūra]	ضرورة

Izohli lugʻatda, shuningdek, notoʻgʻri feʼllardan boʻlmish noqis feʼllarning V bob masdarlari qoʻshimchasi “in”, yaʼni tanvin kasra ikki xil qoʻshimchalar bilan berilgan. Mazkur bob masdarlarining baʼzilari “i” fonemasi bilan ifodalangan, faqat bir oʻrinda “iy” shaklida berilgan. Masalan:

taaddi	[taʿaddin]	تعدي	tasalli	[tasallin]	تسلل
tajalli	[tajallin]	تجلل	taraqqiy	[taraqqin]	ترقي

1.2. Arab adabiy tilidagi ayrim undosh fonemalarining izohli lugʻatda aks ettirilishi

Endi arab tiliga xos boʻlgan baʼzi undosh fonemalarga ega boʻlgan arabcha oʻzlashma soʻzlardagi fonetik oʻzgarishlarni koʻrib chiqamiz. Maʼlumki, dunyoning barcha tillaridagi kabi arab tilining ham oʻziga xos talaffuz qilinuvchi undosh tovushlari mavjud boʻlib, ularning soni oʻndan ortiqdir. Ular oʻzbek tilida mavjud boʻlmagani sababli izohli lugʻatda muayyan fonemalar bilan aks ettirilgan. Jumladan sirgʻaluvchi, shovqinli, jarangsiz, boʻgʻiz undosh fonemasi “ح” [h], chuqur til orqa, jarangsiz, sirgʻaluvchi, shovqinli undosh “خ” [x] fonemasi va sirgʻaluvchi, shovqinli boʻgʻiz undosh fonemasi “ه” [h] oʻzbek tilida uchramaydi.

Izohli lugʻatda mazkur fonemalardan “ح” va “ه” oʻzbek tilining yagona sirgʻaluvchi, jarangsiz, boʻgʻiz undoshi “h” fonemasi bilan aks ettirilgan. Arab tilining chuqur til orqa, jarangsiz, sirgʻaluvchi, shovqinli “خ” undosh fonemasi esa oʻzbek tilining chuqur til orqa, sirgʻaluvchi, jarangsiz undoshi “x” fonemasi bilan ifodalangan. Masalan:

mahorat	[mahāra]	مهارة	istehkom	[ʻistiḥkāṃ]	استحکام
jahl	[jahl]	جهل	muhoraba	[muḥāraba]	محاربة
shahodat	[shahāda]	شهادة	intixob	[ʻintixāb]	انتخاب
intiho	[ʻintihā]	انتهاء	muxolafat	[muxālafa]	مخالفة
isloh	[ʻislah]	اصلاح	xiyonat	[xiyāna]	خیانة
hayrat	[ḥayra]	حيرة	ixtilof	[ʻixtilāf]	اختلاف

Izohli lugʻat tarkibida arab adabiy tilining “ذ”, “ز”, “ظ” va “ض” fonemalari boʻlgan soʻzlar muayyan foizni tashkil etadi. Ulardan tish ora, jarangli, sirgʻaluvchi, shovqinli “ذ” fonemasi va emfatik, tish ora, shovqinli, sirgʻaluvchi, jarangli undosh “ظ” fonemasi hamda emfatik, tish orqa, shovqinli, portlovchi, jarangsiz undosh “ص” fonemalari oʻzbek tilida uchramaydi. Shu boisdan mazkur fonemalarning barchasi izohli lugʻatimizda oʻzbek tilining yagona til oldi, sirgʻaluvchi, jarangli undoshi “z” fonemasi bilan berilgan. Masalan:

jazb	[jazb]	جذب	izn	[ʻizn]	اذن
zavq	[zavq]	ذوق	zafar	[zafar]	ظفر
nazm	[nazm]	نظم	nazar	[nazar]	نظر
izhor	[izhār]	اظهار	ziroat	[zirāʻa]	زراعة
zalolat	[ḍalāla]	ضلالة	razolat	[razāla]	ردالة

Izohli lugʻatda, shuningdek, tarkibida arab adabiy tilining “ث”, “س”, “ص” fonemalari boʻlgan soʻzlar ham keng aks ettirilgan. Mazkur fonemalardan ikkitasi, yaʼni tish ora, jarangli, sirgʻaluvchi, shovqinli undosh “ث” fonemasi, emfatik, til orqa, shovqinli, sirgʻaluvchi, jarangsiz undosh “ص” fonemalari⁹ ham oʻzbek tilida uchramaydi, shuning uchun mazkur fonemalarning barchasi izohli lugʻatda oʻzbek

⁹Rustamova S. “Arab tilining fonetikasi”. T., 2000, -B. 16.

tilidagi yagona jarangsiz, til oldi, sirg'aluvchi undosh “ s ” fonemasi bilan aks ettirilgan. Masalan:

sabot	[sabāt]	ثبات
tanqis	[tanqīš]	تنقيص
vasl	[vaşl]	وصل
nasr	[naşr]	نشر
sabr	[şabr]	صبر
tamsil	[tamsil]	تمثيل
masxara	[masxara]	مسخرة
vasf	[vaşf]	وصف
tasavvur	[taşavvur]	تصور
fasod	[fasād]	فساد

Mazkur lug‘atda arab adabiy tilining “ ت ” va “ ط ” fonemalari mavjud bo‘lgan arabcha o‘zlashmalar ham keng aks ettirilgan. Mazkur fonemalardan “ ط ” fonemasi emfatik, til orqa, shovqinli, portlovchi, jarangsiz undosh bo‘lib, u ham o‘zbek tilida uchraydi. Shu sababli, mazkur ikki fonema o‘zbek tilining yagona jarangsiz, til oldi, portlovchi undoshi “ t ” fonemasi bilan berilgan. Masalan:

satr	[saṭr]	سطر	sath	[saṭḥ]	سطح
talab	[ṭalab]	طلب	talotum	[talāṭum]	تلاطم
qahat	[qaḥaṭ]	قحط	xilt	[xilt]	خلط
xatar	[xaṭar]	خطر	tantana	[ṭanṭana]	طنطنة
ittifoq	[ʾittifāq]	اتفاق	ixtilof	[ʾixtilāf]	اختلاف

1.3. Arab adabiy tilidagi “ ع ” va hamza [ء] undosh fonemalarining o‘zbek tilida ifodalanishi

Ma’lumki, arab adabiy tiliga xos bo‘lib, o‘zbek tilida uchramaydigan fonemalardan yana biri bu portlovchi, jarangli, shovqinli bo‘g‘iz undoshi “ ع ” fonemasidir. Mazkur fonemaning izohli lug‘atda ifodalanishi ko‘proq uning o‘rniga, ya’ni so‘zdagi pozitsiyasiga bog‘liq. Jumladan, agar “ ع ” fonemasi

o‘zlashma so‘zlarning birinchi o‘zak fonemasi bo‘lsa, u yozilmay, uning o‘rniga faqat uning qisqa yoki cho‘ziq unli fonemalari aks ettiriladi. Masalan:

adam	[‘adam]	عدم	ajz	[‘ajz]	عجز
adolat	[‘adāla]	عدالة	azamat	[‘aʒama]	عظمة
aduv	[‘adv]	عدو	azl	[‘azl]	عزل
ajab	[‘ajab]	عجب	azm	[‘azm]	عزم

Agar “ع” fonemasi o‘zlashma so‘zlarning o‘zak fonemasi bo‘lib, sukunlangan bo‘lsa, (ya’ni yopiq cho‘ziq bo‘g‘inni hosil qilsa) u yozilmay, uning o‘rniga “tutuq” belgisi qo‘yiladi. Masalan:

qa‘da	[qa‘da]	قعدة	da‘vat	[da‘va]	دعوة
ta‘bir	[ta‘bīr]	تعبير	da‘vo	[da‘vā]	دعوى
ta‘zim	[ta‘zīm]	تعظيم	iste‘mol	[isti‘māl]	استعمال
ta‘zir	[ta‘zīm]	تعزير	sa‘y	[sa‘y]	سعى
ta‘ziya	[ta‘ziya]	تعزية	iste‘dod	[isti‘dād]	استعداد
va‘da	[va‘da]	وعدة	iste‘fo	[isti‘fā’]	استعفاء
va‘z	[va‘z]	وعظ	na‘ra	[na‘ra]	نعة

Izohli lug‘atda mazkur qoidaga oid bo‘lmagan fonetik o‘zgarish ham uchraydi. Unga ko‘ra o‘zlashgan masdar tarkibidagi sukunlangan “ع” fonemasibutunlay aks ettirilmagan. Masalan:

tayin	[ta‘yīn]	تعيين
taqiq	[ta‘qīq]	تعقيق

Agar “ع” fonemasi arabcha so‘zlarning o‘zak fonemalaridan biri bo‘lib, uning muayyan unli fonemalari bo‘lsa va ochiq bo‘g‘indan keyin kelsa, izohli lug‘atda aks ettirilmay, uning o‘rniga unli fonemalari yoziladi. Masalan:

toat	[tā‘a]	طاعة	itoat	[‘itā‘a]	اطاعة
tabaa	[taba‘a]	تبعة	musoadat	[musā‘ada]	مساعدة
voqea	[vāqi‘a]	واقعة	murojaat	[murāja‘a]	مراجعة
jamoat	[jamā‘a]	جماعة	murofaa	[murāfa‘a]	مرافعة
ziroat	[zirā‘a]	زراعة	mutolaa	[mutāla‘a]	مطالعة

mushoira	[mushā'ira]	مشاعرة	qanoat	[qanā'a]	قناة
sanoat	[šinā'a]	صناعة	shuur	[shu'ur]	شعور

O'zak fonemalardan biri bo'lib, yopiq bo'g'indan (sukunlangan fonema) keyin kelgan va o'z unli fonemalariga ega bo'lgan “ع” fonemasi izohli lug'atda “tutuq” belgisi va unli fonemani yozib ifodalangan. Masalan:

bid'at	[bid'a]	بدعة	sur'at	[sur'a]	سرعة
daf'a	[daf'a]	دفعة	tal'at	[tal'a]	طلعة
in'ikos	[in'ikās]	انعكاس	xil'at	[xil'a]	خلعة

Agar “ع” fonemasi o'zlashma masdarlarning so'nggi o'zak fonemasi bo'lsa ko'pincha uning o'zi ham, unli fonemalari ham izohli lug'atda aks ettirilmaydi. Masalan:

bay	[bay']	بيع	naf	[naf']	نفع
vido	[vidā']	وداع	tavoze	[tavādi']	تواضع
daf	[daf']	دفع	tama	[tam']	طمع
jam	[jam']	جمع	tatabbu	[tatabbu']	تتبع

Ayrim hollarda esa o'zlashma masdarlarning so'nggi o'zak fonema bo'lgan “ع” fonemasi “tutuq” belgisi bilan ifodalangan. Masalan:

saj(')	[saj']	سجع	qat'	[qat']	قطع
tab'	[tab']	طبع	ruju(')	[rujū']	رجوع
shuru'	[shurū']	شروع	ruku(')	[rukū']	ركوع

Arab tili fonetikasiga xos bo'lgan yana bir fonemalardan biri “hamza” [ء] dir. Hamza fonemasini izohli lug'atda aks ettirishda ham muayyan fonetik o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Ular quyidagilar:

Agaro'zlashma so'zlarning birinchi o'zagi hamza fonemasidan iborat bo'lsa, u izohli lug'atda yozilmay, uning unli fonemalari aks ettiriladi. Masalan:

ajr	[ajr]	اجر	ufq	[ufq]	أفق
alam	[alam]	الم	uns	[uns]	أنس
amr	[amr]	امر	ilhom	[ilhām]	إلهام

intiboh	[ʔintibāh]	انتباه	irshod	[ʔirshād]	ارشاد
intizom	[ʔintizām]	انتظام	isbot	[ʔisbāt]	اثبات

Agar hamza fonemasi arabcha soʻzlarning birinchi oʻzak fonemasi boʻlib, soʻzning oʻrtasida sukunlangan holda boʻlsa, u izohli lugʻatning muayyan soʻzlarida “tutuq” belgisi bilan aks ettiriladi. Bu fonetik jarayon xususan II bob feʼllarning masdarlarida yaqqol koʻzga tashlanadi. Masalan:

taʼlif	[taʼlīf]	تأليف	taʼsis	[taʼsīs]	تأسيس
taʼmin	[taʼmīn]	تأمين	taʼxir	[taʼxīr]	تأخير
taʼsir	[taʼṣīr]	تأثير	taʼkid	[taʼkīd]	تأكيد

Agar izohli lugʻatdagi oʻzlashma masdarlarning birinchi boʻgʻini yopiq boʻgʻin boʻlib, ularning ikkinchi boʻgʻinidagi hamza unli fonemaga ega boʻlsa, “tuʼtuq belgisi” bilan unli fonema aks ettiriladi.

jurʼat	[jurʼa]	جراً
nashʼa	[nashʼa]	نشئة

Hamza fonemasi oʻzlashma masdarning ikkinchi oʻzak fonemasini tashkil etib, u arab adabiy tilining qisqa “i” unli fonemasiga ega boʻlsa, u izohli lugʻatda bir oʻrinda oʻzbek tilining old qator, yuqori tor, lablanmagan “i” fonemasi bilan ifodalangan:

qoida	[qāʼida]	قائدة
-------	----------	-------

Ayrim oʻzlashma masdarlarda esa hamza oʻzbek tilining til oʻrta, sirgʻaluvchi, jarangli undoshi boʻlmish “y” fonemasi bilan aks ettirilgan.

foyda	[fāʼida]	فائدة
nasiya	[nasīʼa]	نسيئة
mutoyiba	[muṭāʼiba]	مطائبة

Agar hamza fonemasi arabcha oʻzlashma masdarlarning soʻnggi oʻzak fonemasi boʻlsa, u oʻzbek tilida oʻz unli fonemalari bilan butunlay aks ettirilmaydi. Masalan:

ato	[‘aṭā’]	عطاء	intiho	[‘intihā’]	انتهاء
vafo	[vafā’]	وفاء	istisqo	[‘istisqā’]	استسقاء
davo	[davā’]	دواء	fano	[fanā’]	فناء
jazo	[jazā’]	جزاء	xalo	[xalā’]	خلاء
ijro	[‘ijrā’]	اجراء	shifo	[shifā’]	شفاء

O‘zlashma masdarlar tarkibidagi ayrim undosh fonemalarda tovush o‘zgarishi kuzatildi. Masalan:

1)	t → d	tamaddi	[tamattu’]	تمتع
2)	b → v	taqovul	[taqābul]	تقابل
3)	f → p	patila	[fatīla]	فتيلة
4)	h → d	udda	[‘uhda]	عهدة
5)	r → l	sayil	[sayr]	سير
6)	ع [‘] → g‘	nag‘al	[na‘al]	نعل

Oxiri tashdidlangan, ya’ni ikkilangan undosh bilan tugagan masdarlarning ayrimlarida qo‘sh undoshlardan biri tushib qolgan. Masalan:

xat	[xatt]	خط	haj	[hajj]	حج
g‘am	[g‘amm]	غم	haz	[hazz]	حظّ
g‘ash	[g‘ashsh]	غشّ	hal	[hall]	حل

Bunday masdarlarning ayrimlari esa ikki xil variantda o‘zlashgan, ya’ni qo‘sh undoshlarning birini yoki ikkisini ham yozish mumkin. Masalan:

zid(d)	[ḍidd]	ضد
rad(d)	[radd]	رد
had(d)	[ḥadd]	حدّ
haq(q)	[ḥaqq]	حق
his(s)	[ḥiss]	حس

O‘zbek tilining izohli lug‘ati” tarkibida shunday masdarlar ham borki, ular o‘zbek tiliga ikki xil shaklda o‘zlashgan, lekin ular bir xil ma’noni ifodalaydi. Bunday variantdosh so‘zlarga quyidagilar kiradi:

- **izo** (izza) اِيْذاء — uyalish, hijolat hissi; ranj, ozor
- **rajo** (rijo) رِجاء — umid, orzu, tilak; iltimos, o‘tinch.
- **ray** (ra’y) رَأْي — xohish, mayl; rag‘bat.
- **ra’ya** (rioya) رِعايَة — 1) hurmat yoki yuzxotirlik yuzasidan qilingan muomala; hurmat, andisha; 2) bo‘ysunish, amal qilish, saqlash.
- **udda** (uhda) عَهْدَة — biror ishni bajara olish, o‘rinlatish; amalga oshirish, eplash.
- **shal** (shol) شَل — falaj.

O‘zlashma masdarlarning fonetik tahliliga xulosa sifatida shuni qayd etish joizki, arabcha o‘zlashmalarning unli va undosh fonemalarini o‘zbek tilida aks ettirishda o‘ziga xos xususiyatlar mavjud va ularda tovush o‘zgarishi, so‘z oxirida tovush tushishi va so‘z o‘rtasida tovush ortishi kabi fonetik o‘zgarishlar ro‘y bergan.

Shuni ham qayd etib o‘tish joizki, “ O‘zbek tilining izohli lug‘ati” tarkibida o‘zlashma masdarlarning arab yozuvidagi shaklini berishda yo‘l qo‘yilgan xatoliklarga ham duch keldik. Ularni quyidagi jadvalda aks ettirdik:

So‘z	Izohli lug‘atda	Aslida
barot	برات	براءة
vazifa	وظيفة	وظيفة
zabh	زبح	ذبح
mulohaza	ملاحظة	ملاحظة
ariza	عرضة	عريضة

II BOB. O‘zbek tilining izohli lug‘ati tarkibidagi arabcha o‘zlashma masdarlarning semantik tahlili

Harakat nomi fe’lning gap ichida ma’lum sintaktik vazifani bajarishga xoslangan vazifa shakllaridan biridir. Harakat nomi fe’lning otga xoslangan shakli bo‘lib, u ish harakatning nomini bildiradi, zamon, shaxs-son va mayl ko‘rsatkichlariga ega emas. O‘zbek tilida harakat nomi fe’l asosiga -sh, -ish, -v, -uv, -moq, -mak qo‘shimchalarini qo‘shib suffiksatsiya usuli bilan yasaladi. Masalan: o‘qish, yozish, bag‘ishlov, to‘quv, yozmoq, yemak, ichmak.

Harakat nomlari otlar kabi kelishik, egalik va ko‘plik qo‘shimchalarini oladi. Gapda ega (Sevish va sevilish – ulkan baxt.), ot-kesim (Maqsadim - o‘qish.), to‘ldiruvchi (O‘qishni boshladik.), qaratqich aniqllovchi (Chizishning turli usullari bor.) kabi sintaktik vazifalarni bajaradi.

Harakat nomi arab tilida masdar deyiladi va fe’ldagi ma’noni shaxs va sonidan, zamondan va jinsdan xoli holda ifodalaydi. U o‘zbek tilidagi “o‘qish”, “yozish”, “yigiruv” kabi shakllarga mos keladi. Harakat nomi arab tilida ma’lum vaznlarga ega. Har bir bob masdarlari maxsus shakl-qoliplar asosida yasaladi. Birinchi bob fe’llaridan hosil bo‘ladigan masdarlarning 40 dan ortiq qoliplari mavjud.

Arab tilida masdar – bu ish-harakatning abstrakt nomi bo‘lib, ish-harakatning o‘zini yoki holatini anglatadi. Aslini olganda, fe’lning bu ismiy ekvivalenti fe’l kabi boshqarish xususiyatini qabul qilib olgan, lekin u ismdan sifat va son kategoriyasining yo‘qligi bilan farqlanadi. Masdarlarning yasalishi qat’iy morfologik analogiya hodisasiga borib taqaladi.¹⁰

Ma’lumki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan bir qator arab leksik elementlari bilan birga I-X bob fe’llarining masdarlari keng miqyosda o‘rin olgan. Ularning soni 1100 dan ortiq. Biz ana shu masdarlarni o‘rganib, ularning semantik ma’nosini tahlil qilamiz.

¹⁰QodirovT.Sh., AliyevD.I. Arabtilileksikologiyasi. – Toshkent, 2010.

2.1. Arab va o'zbek tillarida bir ma'noni anglatuvchi o'zlashgan masdarlar tahlili.

O'zbek tili leksikasida arabcha umumiste'moldagi so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi. Ayniqsa leksikada ot so'z turkumiga mansub so'zlarning miqdori yuqori. Ularning o'ziga xos semantik xususiyatlari mavjud. Arabcha so'zlar ko'proq ilmiy, diniy, axloqiy, ta'limiy, mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Tilimizdagi arabcha o'zlashmalarning bir guruhi ma'no qiymatini o'zgartirib, etimologik ma'no va tushunchasi bilan bog'liq bo'lmagan boshqa so'zga aylangan, yoxud ma'no kengayishi va ma'no torayishi yuz bergan.

Ravshan Jomonovning ta'kidlashicha, "so'z o'zlashtirish lisoniy jarayon sifatida juda ko'p hodisalarni o'zida mujassamlashtiradi. Xorijiy so'zni qabul qilish hamda uning qabul qiluvchi tilda muqim "yashab" qolishiga ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatadi. Shunday omillardan biri – o'zlashtirilayotgan so'zdagi semantik aniqlik, ya'ni ma'noni aniq va ravshan ifodalay olishdir. So'z o'zlashtirilishi natijasida so'zdagi ko'pma'nolilik - polisemiya o'rniga birma'nolilik, semantik aniqlik yuzaga kelib, so'zning ma'no tuzilishida soddalashuv, ma'noni aniq ifodalash imkoniyati oshadi. Muhim jihati, qabul qilingan o'zlashma orqali ma'no nozikliklari paydo bo'ladi, bu esa tilning ifoda vositalari kengayishiga, lug'aviy imkoniyatlar bilan boyib borishiga xizmat qiladi. I.V.Arnoldning yozishicha, "O'zlashtirilayotgan so'z, odatda, tilda azaldan mavjud bo'lgan so'zlardan biriga semantik yaqinroq bo'lgan ma'nolardan biri (yoki bir nechasi) ni o'ziga qabul qiladi. Bunda ularning ma'no strukturasida qayta guruhlanish amalga oshadi, ya'ni qaysidir ikkinchi darajali ma'no asosiy ma'noga aylanadi yoki aksincha". Ayni shu o'rinda so'z o'zlashtirishdagi juda nozik jihatlar namoyon bo'ladi: o'zlashma so'z tildagi mavjud leksemalardan birining ma'nosini o'ziga qabul qiladi. Aniqroq aytganda, o'zlashtirilayotgan leksema qabul qiluvchi tildagi ma'lum bir so'z ma'nosini nihoyatda aniq ifodalay boshlaydi"¹¹ Demak, o'zlashtirilayotgan

¹¹Jomonov.R. So'z o'zlashtirishdagi asosiy lisoniy omillar. O'zbek tili va adabiyoti. // 2014/№ 5 / - B. 11.

soʻzdagi semantik aniqlik, bir maʼnolilik ham oʻsha soʻzni qabul qilayotgan til leksikasidan muqim joy olishini taʼminlaydi.

“Bir maʼnoli bir qator soʻzlar manba tilda real narsa predmet maʼnolari bilan bogʻliq boʻlsa-da, oʻzbek tilida boshqacha maʼno kasb etadi – mavhum maʼnoli lugʻaviy birliklar tusini oladi. Masalan : sohib (ega), qomat (boʻy) , miqyos (oʻlchov asbobi) kabi. Baʼzi monosemantik soʻzlarning maʼnosi esa oʻzlashgan tilda butunlay boshqa tusga kirib, oʻz tildagi maʼno xususiyatini tark etadi. Masalan, gʻalayon soʻzi arab tilida suvning qaynash jarayonini anglatadi. Oʻzbek tilida esa norozilik maqsadida koʻtarilgan isyon, qoʻzgʻolon, toʻpolon maʼnolari bilan birgalikda koʻchma maʼnoda kishi ichki dunyosidagi tugʻyon, joʻsh urish maʼnolarida ham qoʻllaniladi: *Aholi gʻalayonga keldi, qoʻrqqanidan emas, zulmga, zoʻrlikka , haqsizlikka chidamaganidan gʻalayonga keldi (M.Ismoiliy, Fargʻona tong otguncha)*”¹²

Izohli lugʻat oʻz ichiga olgan, koʻpgina arabcha oʻzlashma masdarlar ikki tilda – arab va oʻzbek tillarida aynan bir maʼnoni ifodalaydi. Oʻzlashma masdarlar xoh monosemantik, xoh polisemantik maʼnoga ega boʻlmasin, har ikki holatda ham arab va oʻzbek tillarida bir xil maʼnoni anglatuvchilari koʻp sonni tashkil etadi. Masalan, monosemantik **zafar** [ظفر]leksemasi arab tilidazafar, yutuq, gʻalaba, muvaffaqiyat kabi maʼnolarni anglatadi. Bu masdar oʻzbek tilida ham aynan shunday maʼnolarni ifodalaydi: yutuq, gʻalaba, muvaffaqiyat. Misol tariqasida P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidan quyidagi jumlani keltirish mumkin: “*Boburning uch mingga yaqin qurolli kishilari zafar kuyini chalib, qoʻsh nogʻoralar va karnaylar sadosi ostida shaharga kira boshladilar*”.

Insof [انصاف]leksemasi IV bob أنصف “adolatga rioya qilmoq” feʼlining masdaridir. 2002-yilda nashr etilgan “An-Naʼim” lugʻatida bu soʻz adolat, insof, xolislik, betaraflik maʼnolarini ifoda etgan. Oʻzbek tilida esa bu soʻz “adolat va vijdon bilan ish tutish tuygʻusi”, “ishda, kishilarga munosabatda halollik, toʻgʻrilik” maʼnolarida qoʻllaniladi: *Man kuchimni, termini toʻkay, foydasini*

¹²Eshonqulov.B. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida arabcha lugʻaviy oʻzlashmalarning paradigmatic asimmetriyaga munosabati. – T.,1996. – B. 34.

*soyaparvar boylar ko'rsin, man ikki qo'limni burnimga tiqib qolaveray! Qani insof!*¹³

Bundan kelib chiqadiki, ushbu masdar ham arab va o'zbek tillarida bir ma'noni bildiradi.

Zulm [ظلم] so'zi manba tilida "zulm, jabr, zolimlik, adolatsizlik" degan ma'noni bildiradi. Bu leksema ona tilimizda xuddi shu tushunchalarni ifodalaydi:

1 Hukmdor va hokimlarning fuqaroga, zolimlarning mazlumlarga ko'rsatgan jabri; shavqatsizlik, istibdod. *Zulm zindondan yomon.* Maqol. 2 Umuman, jabrsitam, ezish, adolatsizlik. *Odamlarga o'tkazgan zulmi uchun Olaxo'ja xalq oldida javob bermay hech qayoqqa ketmaydi.*¹⁴

Shuningdek, polisemantik ma'noga ega ko'pgina masdarlar o'zbek tiliga barcha ma'nolari bilan o'zlashgan. Misol uchun ana shunday polisemantik ma'noga ega bo'lgan **muomala** [معاملة] so'zini olib ko'raylik. Bu leksema arab tilida 1) aloqa, munosabat, muomala; 2) munosabat; 3) ish, muomala, savdo kabi bir qancha ma'nolarga ega. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa bu so'z quyidagicha izohlangan: 1) kishilar bilan munosabat, so'zlashuv, shunday munosabat yo'sini; 2) ish xizmat bilan bog'liq bo'lgan aloqa; 3) iqt. Mehnat mahsulotlarini oldi-sotdi vositasida ayirboshlash: *Tevarakdan marg'ilonlik kelinni ko'rish uchun keluvchi xotinlarga muomalani yana ham yuqoriroqdan turib qila boshladi.*¹⁵ Demak, bu polisemantik leksema o'zbek tiliga o'zining barcha ma'nolari bilan o'zlashgan.

Yuqoridagi kabi so'zlardan yana biri **sehr** [سحر] leksemasidir. Bu I bob سحر "sehrlamoq, maftun qilmoq" fe'lining fi'lun) qolipida yasalgan masdari bo'lib, arab tilida u "maftunkorlik", "sehrgarlik" kabi ma'nolarni anglatadi. O'zbek tilida bu leksema "g'ayritabiiy kuchlar, sehrli afsun va duolar yordamida mo'jiza yaratuvchi harakat; afsun, jodu" va ko'chma ma'noda "so'z yoki xatti-harakatdan kelib chiqadigan maftunkorlik, fusunkorlik, joziba" degan ma'nolarni

¹³Oybek. Nur qidirib. – T.: Sharq, 2000. –B. 54.

¹⁴S.Siyoyev. Avaz. – T.: Sharq, 2003. – B. 98.

¹⁵A.Qodiriy. O'tkan kunlar. . – T.: Sharq, 2016.- B. 176.

o‘zida mujassamlaydi: *O‘g‘lingizning bu ishi bejiz emas: marg‘ilonlik sehr qildimi, jodu qildimi, haytovur, siz shu yo‘sinda yurabersangiz, erta-indin o‘g‘ildan ajralasiz.*¹⁶ Demak, arabcha sehr so‘zi ikki tilda ham bir ma‘noni anglatadi.

Ikki tilda ham bir xil ma‘noni anglatuvchi o‘zlashma masdarlarga quyidagilar ham kiradi:

Xusumat [خصومة] — birovga nisbatan bo‘lgan kek, adovat; qasd; dushmanlik.

Fasohat [فصاحة] — chiroyli va yoqimli so‘zlash qobiliyati, nutqning aniq va ravonligi.

Xiyonat [خيانة] — ahdni buzish, birovning ishonchini yoki ishonib topshirgan narsasini suiiste‘mol qilish.

Ta‘xir [تأخير] — o‘z vaqtida kelmaslik yoki qilmaslik, bajarmaslik; kechikish, xayollash; to‘xtab qolish; to‘xtatib qo‘yish.

Riqqat [رققة] — noziklik, yumshoqlik.

Nuqson [نقصان] — kishi nomiga nomunosib, uni salbiy jihatdan ko‘rsatadigan belgi; jismoniy yoki ruhiy kamchilik, qusuq, illat, ayb.

Munoqasha [مناقشة] — munozara, bahs, tortishuv.

Mudofaa [مدافاة] — dushmandan saqlanish, o‘zini himoya qilish uchun zarur bo‘lgan yoki hozirlangan vosita va choralar majmuyi.

Kifoya [كفاية] — qanoatlansa bo‘ladigan darajada, qanoatlanarli; yetarli.

Ig‘vo [اغواء] — nizo, nifoq solishga, ittifoqni buzishga, buzg‘unchilikka qaratilgan xatti-harakat, yolg‘on-yashiq, uydirma, bo‘hton va shu kabilar.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” tarkibida bunday masdarlar ko‘pchilikni tashkil etgani bois, ularning qolgan qismini 1-ilovada keltirib o‘tdik.

¹⁶A.Qodiriy. O‘tkan kunlar. . – T.: Sharq, 2016.- B. 176.

2.2.Ma'nosi kengaygan va toraygan o'zlashma masdarlar tadqiqi

O'zbek tiliga so'zlar o'zlashishining o'ziga xos tadrijiy bosqichlari bor. O'zbek tilidagi mumtoz badiiy manbalar kuzatilganda, ularda fors-tojik va arab tillaridan o'zlashgan so'zlarning o'z davriga qarab o'zlashish va qo'llanilish ko'lami kengaya borgani kuzatiladi. O'zlashma so'zlar o'z tilidan boshqa tilga o'zlashar ekan, ma'lum muddat o'z qatlam so'zlariga qaraganda barcha uchun birday tushunarli bo'lmagan, ishlatilish doirasi o'z qatlam so'zlariga qaraganda nafaol xususiyatga ega bo'ladi.

Professor E.Begmatov o'zlashma so'zlar masalasiga yondashar ekan, quyidagicha fikrni bildiradi: "O'zbekcha so'zlar uchun asos bo'luvchi arabcha, forsha-tojikcha kabi so'zlar material va genetik manbaiga ko'ra chet til elementi bo'lsa ham, ularni hozirgi o'zbek adabiy tili nuqtai nazaridan, ya'ni davriy (sinxronik) holatga ko'ra, tashqi resurs deyish bir tomondan to'g'ri, ikkinchi tomondan esa, shartlidir. Bu so'zlar endilikda o'zbek tiliga o'zlashtirilgan, ko'p davrdan beri bu tilda iste'molda bo'lgan, o'zbek tilining qonuniy boyligiga aylangan leksikadir. Shuning uchun bu so'zlarning ko'pchiligi o'zbek tilida gaplashuvchi hozirgi davr kishilari uchun o'zlashma so'z tarzida tuyulmaydi. Mana shu xususiyatiga ko'ra, yangi o'zbekcha so'zlar uchun baza bo'luvchi arabcha, forsha-tojikcha so'zlar funksiyasiga ko'ra, traditsion tub turkiy so'zlarga yaqin turadi. Demak, o'zbekcha so'zlar yasalishiga xizmat qiluvchi arabcha, fors-tojikcha so'zlarning aksariyati keltirilgan ma'noda ichki resurs xarakteridadir"¹⁷.

Jumladan, hozirda o'zbek tiliga arab tillaridan o'zlashgan so'zlarning iste'mol ko'lami shu qadar kengayib ketganki, o'zbek tilining izohli lug'atida ularning o'z qatlam so'zlari kabi ma'nolari kengayib ketganini kuzatish mumkin. Muhimi esa, til sohiblari uchun arabcha so'zlarning ma'nolari o'z qatlam so'zlari kabi tushunilishi aniqlashib ketgani, ko'pchilik hollarda ularni umumturkiy so'zlardan farqlanmay qolgani ham bu so'zlarni "begonalik" holatidan uzoqlashtiradi.

¹⁷ Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. -Toshkent: Fan, 1985. -B. 130.

Tilimizdagi o‘zlashma so‘zlar semantikasi o‘rganilsa, leksik ma’no taraqqiyotining natijasi sifatida ikki xil holat – leksik ma’no hajmining kengayishi yoki torayishi kuzatiladi.

Ma’no kengayishi ma’lum bir so‘zlar uchun tarixiy taraqqiyot jarayoni bo‘lib, leksik ma’noning avvalgisiga nisbatan kengroq voqelikni bildirishiga nisbatan ishlatiladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” tarkibida muayyan foizni arab tilida tor ma’noda qo‘llanilib, o‘zbek tilida ma’nosini kengaytirgan arabcha o‘zlashma masdarlar tashkil qiladi. Masalan, **rag‘bat** [رغبة] so‘zi arab tilida 1) istak, orzu; 2) qandaydir kolleksiyani to‘ldirish uchun predmetlar kabi ikki ma’noda qo‘llanilsa, o‘zbek tilida esa bir qancha kengroq ma’nolarni ifodalaydi. Birinchidan, biror ishga bo‘lgan xohish, istak, mayl ma’nosida, ikkinchidan, qiziqtiruvchi, qo‘zg‘atuvchi omil, sabab; manfaat keltiruvchi narsani anglatadi.

Psixologik ma’noda esa inson his-tuyg‘ulari, ruhiy holatlarini rivojlantiruvchi ta’sirni ifodalaydi: *Men jo‘ralarimning oldida faxr etib yuraman. Avaz og‘am g‘azallarimni o‘qib, rag‘bat berdi, deyman.*¹⁸ Ko‘rinadiki, rag‘bat so‘zining o‘zbek tiliga o‘zlashishida ma’no kengayish hodisasi ro‘y bergan.

Shuningdek, **alam** [الم] leksemasi arab tilida bir qancha torroq ma’noni, ya’ni “og‘riq” va “iztirob” kabi tushunchalarni aks ettiradi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa bu so‘zning quyidagi ma’nolari berilgan:

- 1) jismoniy qiynoq; azob, og‘riq;
- 2) ruhiy azob, iztirob;
- 3) qasd, o‘ch, qasos;
- 4) g‘azab, nafrat; zahr.

Bu so‘zning arab va o‘zbek tilidagi ma’nolarini qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkinki, *alam* leksemasida ham ma’no kengaygan. Abdulla Qahhorning “Xotinlar” hikoyasida ham *alam* so‘zi o‘zining kengaygan ma’nosida qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin: *Yig‘ladim. O‘tirib xat yozdim. Bu bilan ham alamdand chiqmay, xatni ko‘tarib, Komila xolamning oldilariga arzga bordim.*

¹⁸S.Siyoyev. Avaz. – T.: Sharq, 2003. – B. 67.

Xato [خطاء] soʻzi hamzali feʼldan hosil boʻlgan masdar boʻlib, arab tilida “xato, nuqson, yanglishish” kabi maʼnoda qoʻllaniladi. Ona tilimizda bu soʻz biroz kengaygan maʼnolarni ifodalaydi. Masalan, 1 Hisoblash, yozish, oʻqish, soʻzlash va shu kabilarda adashish, yanglishish, notoʻgʻrilik, qusur. *Imloviy xato. Matematik xato.* 2 Umuman, turmushda, ishda yoʻl qoʻyilgan kamchilik, nuqson, notoʻgʻri xatti-harakat. *Dushman siringni oʻgʻirleydi, Doʻst xatongni toʻgʻrileydi. (Maqol)* 3 Haqiqatga toʻgʻri kelmaydigan, asossiz, notoʻgʻri. *Joʻrttaga xato oʻqib, oʻzing kuldirding... Oʻqi, Raʼno.* 4 qishloq xoʻjaligidayerdan chiqmay yoki unmay qolgan urugʻ. *Yaxshi ishlanmagan yerga ekilgan urugʻ xato chiqadi.* 5 Moʻljalga, nishonga tegmaslik. *Hech qaysisining otgani xato ketmas edi, hech bir dushman omon ketmas edi.*

Koʻrinadiki, arabcha masdarlarning ayrimlari oʻzbek tili leksikasida allaqachon oʻzining taraqqiyot yoʻlini topib olgan va maʼno kengayishiga uchragan deyish mumkin.

Oʻzbek tilida maʼnosini kengaytirgan arabcha oʻzlashma masdarlarga yana quyidagilar ham kiradi:

ajab	عجب	dalolat	دلالة
aza	عزاء	daraja	درجة
azamat	عظمة	dafina	دفينة
ayb	عيب	daʼvo	دعوى
alam	الم	jahorat	جراحة
alomat	علامة	zamzama	زمزمة
amal	عمل	zarb	ضرب
amr	امر	ziyo	ضياء
balogʻat	بلاغة	ziyofat	ضيافة
bokira	باكرة	ziq	ضيق
vabo	وباء	zulmat	ظلمة
vasiqa	وثيقة	ijod	ايجاد
vatan	وطن	ilm	علم
vahima	واهمة	inqiroz	انقراض

itob	عتاب	rayosat	رياسة
ifoda	افادة	rahmat	رحمة
iftor	افتار	rihlat	رحلة
ixroj	اخراج	robita	رابطه
ishq	عشق	rutubat	رطوبة
kinoya	كناية	sakta	سكتة
lafz	لفظ	salom	سلام
libos	لباس	saxovat	سخاوة
lutf	لطف	sel	سيل
mavj	موج	siyosat	سياسة
maraz	مرض	siyoq	سياق
misol	مثال	sulh	صلح
muvozanat	موازنة	taajjub	تعجب
mukolama	مكالمة	tabaq	طبق
munosabat	مناسبة	tavba	توبة
musodara	مصادرة	taloq	طلاق
muhofaza	محافظة	talqin	تلقيين
nadomat	ندامة	tamom	تمام
najas	نجس	taraddud	تردد
nazar	نظر	tasadduq	تصدق
nasiya	نسيئة	tatabbu	تتبع
nag‘ma	نعمة	tafriq(a)	تفريق تفرقة
nisor	نثار	tashvish	تشويش
niqob	نقاب	tashxis	تشخيص
nur	نور	ta‘ziya	تعزية
nusxa	نسخة	tuhmat	تهمة
odat	عادة	uzr	عذر
omonat	أمانة	fazo	فضاء
oqibat	عاقبة	fayz	فيض
ravza	روضة	fatvo	فتوى

fikr	فكر	qadam	قدم
firoq	فراق	g‘alat	غلط
fitr	فطر	g‘animat	غنيمة
xazina	خزينة	g‘arq	غرق
xalifa	خليفة	g‘ilof	غلاف
xarob	خراب	g‘urbat	غربة
xaroba	خرابة	g‘urur	غرور
xat	خط	hayot	حياة
xato	خطاء	hazar	حذر
xizmat	خدمة	hazil	هزل
xotira	خاطرة	hazm	هضم
xuruj	خروج	harakat	حركة
xutba	خطبة	haq(q)	حق
xufiya	خفية	hikmat	حكمة
shart	شرط	himoya(t)	حماية
shum	شؤم	hisob	حساب
qavl	قول	hojat	حاجة

Ma’lumki, tilning hamma yaruslari doimo rivojlanishda bo’ladi. Tilning lug‘at boyligi ham bundan mustasno emas. Shunga ko‘ra so‘zning leksik ma’nosi muntazam o‘zgarib turadi va, adabiyotlarda qayd etilganidek, u bir qancha mayda ma’nolar – semalardan tashkil topadi. Ana shu semalardan birining tushib qolishi yoki ba’zilarining rivojlanib, boshqa semalarga nisbatan yetakchi vazifani o‘tay boshlashi mumkin. Shuningdek, so‘zdagi dastlabki ayrim semalar neytrallashib, tushib qolishi ham mumkin. So‘z ma’nosining rivojlanishi sifat va miqdor o‘zgarishiga, ma’noning kengayishi va torayishiga, hattoki tildan umuman tushib qolishiga olib keladi. Bunda jamiyat taraqqiyoti alohida ahamiyatga ega.

So‘zning leksik ma’nosi kengayishi natijasida ko‘p ma’noli (polisemantik) so‘zlar paydo bo’ladi. Leksik ma’noning torayishi so‘z ma’nosining kengayishiga nisbatan aks jarayondir. Til evolyutsiyasi jarayonida so‘z ma’nosining torayishi uning qo‘llanish doirasini chegaralab qo‘yadi. Ko‘pchilik tilshunoslarning fikricha,

leksik ma'noning torayishi deganda umumlashtiruvchi so'zning ayrim, xususiyl ma'noni ifodalashga o'tishi, leksik ma'noning avvalgiga nisbatan torroq voqelikni bildirishi tushuniladi.¹⁹

Arab tilidagi polisemantik so'zlar o'zbek tiliga o'zlashganda hamma vaqt ham ular barcha ma'nolarini saqlab qololmaydi. Ularning ma'nolaridan ba'zilari o'zlashib, boshqalari arab tilida saqlangan. Masalan, **muolaja** [معالجة] so'zi arab tilida 4 ma'noga ega: 1) muolaja, davolash; 2) to'g'rilash; 3) izohlash, tushuntirish, tahlil etish; 4) ishlov berish. Bu o'zlashma masdar o'zbek tiliga atigi bir ma'no "davolash, davolanish; davo" ma'nosi bilan kirib kelgan.

Ixtilof [اختلاف] so'zi arab tilidagi VIII bob fe'lining masdari bo'lib, u arab tilida quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

- 1) turli-tumanlik, xilma-xillik, rang-baranglik;
- 2) farq, tafovut;
- 3) o'zgaruvchanlik;
- 4) almashinuv, almashish;
- 5) kelishmovchilik, nifoq; qarama-qarshilik; norozilik; janjal, nizo.

O'zbek tiliga o'zlashganda esa u bir nechta ma'nolarini yo'qotib, ma'no torayishi hodisasiga uchragan va u tilimizda faqatgina "qarama-qarshi holat; kelishmovchilik, ziddiyat, nizo" kabi tushunchalarni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Jazb [جذب] leksemasi I bob fe'lining فعل (fa'lun) qolipidan hosil bo'lgan masdar hisoblanadi va u arab tilida "intilish, mayl", "tortish jalb qilish" va fizik atama sifatida "tortish" ma'nosini, diniy jihatdan esa "qandaydir g'oyibona kuch" kabi bir qancha ma'nolarni anglatadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da esa bu so'z faqatgina bir ma'noda, ya'ni "o'ziga tortish, maftun qilish" degan ma'noni ifodalashi qayd etilgan: *Uning butun turish-turmushi Sherbekni o'ziga jazb etdi-qo'ydi.*²⁰

Yuqorida masdarlarning arab va o'zbek tillaridagi ma'nolarini qiyoslab shunday xulosaga kelish mumkinki, bu o'zlashmalarda ma'no toraygan.

¹⁹Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 2005. – B. 198.

²⁰A.Qahhor. Tanlangan asarlar. I jild.– T.: Sharq, 1993. – B. 40.

Vahim [وهم]soʻzi arab tilida 4 ta maʼnoga ega: 1) tasavvur; illuziya; toʻqima narsa; 2) fikr, gʻoya; 3) shubha, xatar; qoʻrqinch; 4) yanglishish, adashish, xato. Bu soʻz ona tilimizda oʻz maʼnosini toraytigan. 1 Qoʻrqinch, qoʻrquv. *Gʻulomjon koʻrdi-yu, sharpa vahmini ham unutib, shoxlarni ikki yonga qayirdi-da, orasiga suquldi.*²¹2 Vahimali, qoʻrquvga soluvchi, tahlikali.*Toʻgʻonbek, garchi vaziyatni ozgina boʻlsin oʻzgartirmagan boʻlsa ham, tili kesilib, vahim bir sukutga ketdi.*²²

Arabcha **ifrot** [افراط] leksemasi oʻzbek tilida eski kitobiy soʻz hisoblanadi va u “ortiq darajada, haddan ziyod” degan maʼnoda qoʻllaniladi. Oybekning “Nur qidirib” nomli qissasidan quyidagi parchani keltirishimiz mumkin: *Tojiddin Qosim ifrot odob bilan, uyalib-tortinib, goʻyo toʻygan qoʻziday, ovqatni sust yeya boshladi.* Bu soʻzning arab tilidagi maʼnosi esa biroz kengroq. “An-Naʼim” lugʻatida uning quyidagi maʼnolari qayd etilgan:1) meyordan ortiqchilik, ortiqchalik; haddan oshiqchilik; 2) suisteʼmol qilish; vakolat doirasidan chiqish, oʻzining huquqi yoʻq ishlarga ham aralashish.Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, bu oʻzlashma masdar ham maʼno torayishiga uchragan.

Oʻzbek tilida maʼnosini toraytirgan arabcha oʻzlashma masdarlar koʻp sonni tashkil etadi, shuning uchun ularni 2-ilovada qayd etdik.

2.2. Oʻzbek tilida maʼnolari butunlay oʻzgargan arabcha oʻzlashma masdarlar

Har bir tilda, xususan, oʻzbek tilida ham soʻz oʻzlashtirishning tarixiy-anʼanaviy, hamda hozirgi zamonaviy turlari mavjud. Muhimi shundaki, oʻzbek tili leksikasining arabcha soʻzlar qatlami soʻz oʻzlashtirishning tarixiy-anʼanaviy koʻrinishi orqali vujudga kelgan.Tarixiy-anʼanaviy yoʻsinda oʻzlashgan lisoniy birliklar til lugʻat tarkibida uzoq vaqt saqlanadi. Davrlar oʻtishi bilan, ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar tazyiqi ostida ular baʼzan faollashib, baʼzan sustlashib “tovlanib”, qalqib turadi. Faollashgan lugʻaviy birliklarning, maʼlum bir tazyiq

²¹Ismoil M. Fargʻona tong otguncha. – T.: Sharq, 1995. –B. 95.

²²Oʻsha kitob. –B. 123.

ostida bo'lishi iste'moli cheklangan boshqa leksemalarning faollashuviga sabab bo'ladi. Hozirgi vaqtda o'zbek tili leksikasining tarixiy-an'anaviy yo'sindagi o'zlashgan qatlamida ayni ana shu jarayon boshlangan. Iste'mol doirasi salbiy ma'no jilvasi bilan cheklangan hokim, rais, noib va hokazolarning davr taqozo etgan yangi, ijobiy ma'no bilan "faoliyat" boshlagani buning yorqin misolidir.

O'zbek tiliga o'zlashgan arabcha so'zlarning bir guruhi o'zbek tili zaminida o'z ma'no qiymatini butunlay yo'qotib, etimologik ma'no va tushunchasi bilan aloqador bo'lmagan boshqa semantik birlikka aylangan. Bunday xarakterdagi so'zlar asl fonetik va morfologik qiyofalarini o'zgartirmagan. Shunday bo'lsa-da, ularning arab tilidagi muqobili bilan o'zbek tilidagi muqobili o'rtasida semantik yaqinlik sezilmaydi, xullas, ular o'zbek tili zaminida butunlay yangi so'z bo'lib qayta tug'iladi. O'zlashgan so'z ma'nosi bilan uning o'z tilidagi variant ma'nolari orasida bog'liqlik unutiladi. Masalan, **aysh** [عیش] so'zi arab tilida hayot, turmush, oziq-ovqat ma'nolarini ifoda etadi. O'zbek tilida esa bu so'z arab tilidagi tushunchasi bilan mutlaqo aloqasi bo'lmagan tushunchalarni anglatadi: 1) huzur-halovat, rohat-farog'at; nash'a; 2) kayf-safo, ishrat. Misol tariqasida Abdulla Qahhorning "Mayiz yemagan xotin" asaridan quyidagi jumlani keltirish mumkin: "Mana, o'zingiz ko'rgan joy, bemalol ayshlaringizni qilinglar".

Arabcha **ilhaq** [الحاق] so'zi IV bob الحق fe'lining masdari bo'lib, "qo'shish, ulash, birlashtirish" va "komandirovka qilish" ma'nolarini ifodalaydi. O'zbek tilida esa kelib chiqishiga umuman aloqador bo'lmagan ma'noni anglatadi, ya'ni "umidvorlik bilan kutuvchi, mushtoq, muntazir" degan ma'noda qo'llaniladi. Fikrimizni Abdulla Qahhorning "Ming bir jon" asaridan keltirilgan ushbu jumla ham tasdiqlaydi: *Kasallik, o'lim to'g'risidagi gap tugab, xushchaqchaq suhbat boshlanishiga ilhaq bo'lib turgan Akramjon Mastura boshlagan askiyani ilib ketdi.*

O'zbek tilida butkul yangi ma'no kasb etgan o'zlashmalardan yana biri sifatida III bob fe'lining مفاعلة (mufā'alatun) vaznida yasalgan **mulozamat** [ملازمة] leksemasini tahlil qilamiz. Ushbu so'z arab tilida 1) chekinmaslik, ajralmaslik;

2) ayrilmaslik, o'ziga xoslik; 3) ketidan qolmay ta'qib qilish, jo'rlik; 4) sabot, tirishish ma'nolarida qo'llaniladi. Ona tilimizda esa bu so'z umuman boshqa

- “kishining ko’nglini olish uchun ko’rsatilgan iltifot, e’zoz-ikrom, takalluf” degan ma’noni bildiradi: *Bozor ustaligini ishga solib, iltifot va mulozamatlar bilan qizning ko’nglini ovlay boshladi.*

Yana shunday o’zlashmalar mavjudki, ular arab tilidagi ma’nosidan unchalik uzoqlashmagan holda o’zbek tilida yangi ma’noni hosil qilgan. Masalan, **idbor** [ادبار] so’zining kelib chiqishiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, u IV bob أدبر fe’lining masdaridir. Bu leksema arab tilida “orqaga qaytish, chekinish” ma’nosini bildiradi. O’zbek tilida esa eskirgan so’z hisoblanib, “baxtsizlik, ish yurishmaslik, ishning orqaga ketishi” kabi ma’nolarda qo’llanilgan:

*Masti iqbol o’lma-yu, idbor bila og’ritma bosh,
Totmag’il bu bodani, zinhor maxmur o’lma’g’il.*

“O’zbek tilining izohli lug’ati” tarkibida o’z ma’nosini butunlay o’zgartirgan masdarlar soni 100 dan oshiqdir. Ularni quyida ko’rishimiz mumkin:

azimat	عظيمة	iltijo	التجاء
aysh	عيش	ilhaq	الحاق
araz	عرض	inobat	انابة
bayot	بيات	isnod	اسناد
bashara	بشرة	istihola	استحالة
baqbaqa	بقبة	isqot	اسقاط
bizoat	بضاعة	iflos	افلاس
vajohat	وجاهة	kasal	كسل
dabdaba	دبدبة	kasofat	كثافة
davron	دوران	kasr	كسر
darj	درج	minnat	منة
dag’dag’a	دغدغة	mulozamat	ملازمة
jarima	جرمة	murojaat	مراجعة
zavq	ذوق	musohaba	مصاحبة
zubda	زبدة	muhokama	محكمة
idbor	ادبار	nahs	نحس

nifoq	نفاق	taomil	تعامل
ray (ra'y)	رأي	taraka	تركة
raqobat	رقابة	targ'ib	ترغيب
rivoj	رواج	tasanno	تنثني
rizvon	رضوان	tasodif	تصادف
ruju(')	رجوع	taxallus	تخلص
ruyo	رؤيا	tashrif	تشريف
saboq	سبق	ta'na	طعنة
savlat	صولة	taqdir	تقدير
savod	سواد	taqsir	تقصير
savq	سوق	tahsin	تحسين
sadr	صدر	turfa	طرفة
salobat	صلابة	favt	فوت
sinoat	صناعة	farog'	فراغ
supra	سفرة	farog'at	فراغة
tabarruk	تبرك	futur	فتور
tavfiq	توفيق	xalo	خلاء
tavhid	توحيد	xarajat	خرجة
tadorik	تدارك	xasm	خضم
tajammul	تجمل	xilqat	خلقة
tajnis	تجنيس	shavkat	شوكة
takalluf	تكلف	shafoat	شفاعة
takbas	تكبيس	yaqin	يقين
taklif	تكليف	qa'da	قعدة
tamaddi	تمتع	qahr	قهر
tamkin	تنكين	qiyom	قيام
tamoyil	تمايل	qiron	قران
tamsil	تمثيل	qurb	قرب
tansiq	تنسيق	g'alayon	غليان
tantana	طنطنة	g'ash	غش

g'ulu(v)	غُلُو	hashar	حَشَر
habata	هَبَطَة	haqorat	حَقَارَة
hayf	حَيْف	hijo	هَجَاء
halovat	حَلَاوَة	himmat	هَمَة
hashamat	حَشَمَة	huzur	حُضُور

2.4.Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'llanilmaydigan arabcha o'zlashma masdarlar

Arabcha so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelishi, ayniqsa, VII-VIII asrlarda ko'proq yuz bergan. XIV-XV asr eski o'zbek tilida arab tili leksikasi sezilarli qatlamni tashkil qilgan. Shuning uchun Navoiy asarlari tilida forscha-tojikcha so'zlar bilan bir qatorda arabcha so'zlar ham uchraydi.

O'zbek tiliga arab tili faqat din-islom tili sifatida emas, balki fan tili, rasmiy idoraviy uslub tili, badiiy adabiyot tili sifatida ham ta'sir etdi. Ammo arab tilining ba'zi tillarga ta'siri, asosan, din tili sifatida yuz berdi. O'zbek tiliga arab tilidan so'z olish, asosan, o'zbek-arab bilingvizmi davrida kuchli bo'ldi. Keyingi davrlarda o'zbek tiliga yangi so'zlar sezilarli darajada qabul qilinmagan, keyinchalik esa o'zbek tiliga kirgan arabcha elementlardan bir qismining eskirishi va o'zbek tilidan chiqish jarayoni yuz berdi. Alisher Navoiy tilida ishlatilgan ko'pgina arabcha so'z va so'z shakllari XIX asr o'zbek tilida, shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tilida uchramaydi. Arab tilining o'zidan bevosita so'z olish XI asrdayoq deyarli to'xtagan edi. Ammo turli davrlarda arabcha yozma manbalarda, shuningdek, eski o'zbek tili yozma yodgorliklarida saqlangan arabcha so'z guruhlari u yoki bu davrlarda faollashib turdi. Masalan, XX asr boshlarida va 20-yillar o'zbek tilida ilmiy atamalar sifatida faollashgan arabcha so'zlar ana shu keyingi manbalardan olingan edi.

O'zbek tili taraqqiyotida boshqa xalqlarning lisoniy ta'siri, xususan, leksik qatlamda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, 90-yillardagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tilga, uning leksikasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Natijada muayyan

bir tillardan o‘zlashgan so‘zlarning mavqeyi pasayib, iste’moldan chiqdi, ularning o‘rnida allaqachon istorizm va arxaizmga aylangan arabcha so‘zlar yana ishlatila boshlandi. Masalan, jumhuriyat, jamoa, jamoat, muxolif, majlis, viloyat, jarida, muallif, noshir, nashriyot, noib, fuqaro, muxtor, nohiya, muassis, tijorat, shirkat, hokim, vazir va boshqalar.

Shuni zikr qilish o‘rinliki, izohli lug‘atda hozirgi o‘zbek tilida istifoda qilinmaydigan o‘zlashma masdarlar ham aks ettirilgan. Bu so‘zlar eskirgan so‘zlar hisoblanib, ular hozirgi o‘zbek tilida deyarli ishlatilmaydi. Masalan, adam (“yo‘qlik”, “mavjud emaslik”), ajz (“qurbi yetmaslik”, “ojizlik”, “zaiflik”), bakorat (“bokiralik”, “iffatlilik”), izdihom (“odamlar to‘dasi”, “olomon”), musovada (“xatga olish”, “ro‘yxat”), safohat (“nodonlik”) va boshqalar.

Quyida hozirgi o‘zbek tilida eskirgan arabcha masdarlarning bir qanchasini asarlardan keltirilgan misollar bilan keltirib o‘tamiz:

Azl [عزل] — bekor qilish, chetlatish, bo‘shatish. *Azizbek maqsadga ko‘chdi: Meni Toshkent hokimligidan azl etmoqchi va qo‘llaridan kelsa, hatto o‘ldirmoqchi bo‘ldilar.*²³

Baqo [بقاء] — abadiylik, manguilik; cheksiz hayot, abadiyat. *Istibdod hech mahal bilmagay baqo.* J.Jabborov.

Jurm [جرم] — gunoh, ayb; xato. *Odatda munojotda muallif o‘z jurm-xatolari uchun uzr so‘raydi, tavba qiladi.* “O‘TA”.

Ijtinob [اجتناب] — o‘zini tortish, tiyilish.

Bilur jahon elikim, mehmon ziyofatidan

Mening tariqim emas ijtinob qilmog‘lik.

(A.Navoiy)

Musohaba [مصاحبة] — suhbatlashish, hamsuhbat bo‘lish. *Olimlar va yozuvchilar oila a‘zolari bilan nonushtaga o‘tirar ekanlar, musobahalarining mavzusi oq oltin bo‘ladi.* Sh.Rashidov, Bo‘rondan kuchli.

²³A.Qodiriy. O‘tkan kunlar. . – T.: Sharq, 2016.- B. 216.

Safolat [سفالَة] — juda yomon, nochor ahvol, abgorlik; yaramas xatti-harakat yoki xulq-atvor; razillik, razolat. *Ko‘chaning ikki tomonida bo‘g‘ot tomli, qing‘ir-qiyshiq xarob uylar, yarim qulagan devorlar oqshom qorong‘isida dardli manzara yasaydi, safolatdan, yo‘qchilikdan, qo‘rqinch sukutga cho‘kadi.*²⁴

Tamalluq [تتلق] — haddan ortiq takalluf ko‘rsatish, sermulozamat bo‘lish; xushomad qilish, yaltoqilik, tilyog‘lamalik. *Ikki mehmon taraflaridan o‘ziga qilingan favqulodda tamalluq va mulozamat, tabiiy, uni o‘ylashga majbur qiladi.*²⁵

E‘tidol [اعتدال] — bir tekisdagi mo‘tadil holat, muvozanat. *Anvarning ko‘nglidagi qorong‘ilik ham kuchaydi, yurak urushi e‘tidoldan chiqib, o‘g‘ri kishidek atrofqa qarana boshladi.*²⁶

Hadaf [هدف] — 1) biror narsa otish yoki zarb berish uchun mo‘ljalga olingan narsa; nishon; 2) erishish, qo‘lga kiritish ko‘zda tutilgan, harakat yo‘naltirilgan narsa; maqsad. *Shunga o‘xshash, mulla Abdurahmon ham, muhokamasiga ozgina g‘araz aralashtirib, Safar bo‘zchining achchiq haqoratiga hadaf bo‘ldi.*²⁷

Quyidagi masdarlar ham hozirda qo‘llanilmaydi:

bazl	بذل	musolaha	مصالحة
barot	براءة	muqobala	مقابلة
muqovamat	مقاومة	idbor	ادبار
muhoraba	محاربة	muhosara	محاصرة
navha	نوحه	ijtihod	اجتهاد
rabt	ربط	rajo (rijo)	رجاء
izo	ايذاء	intixob	انتخاب
rishva	رشوة	robita	رابطة
sakta	سكتة	inqiyod	انقياد
saforat	سفارة	suqut	سقوط
uns	أنس	iona	اعانة

²⁴Oybek. Nur qidirib. – T.: Sharq, 2000. –B. 49.

²⁵A.Qodiriy.Obid ketmon. – T.: Sharq, 2007. –B. 18.

²⁶A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. – T.: Sharq, 2007. –B. 33.

²⁷O‘sha kitob. –B. 123.

irshod	ارشاد	taaddi	تعدٍ
isror	اصرار	taammul	تأمل
istinod	استناد	taarruz	تعرض
itmom	اتمام	tabaa	تبعة
ifo	ايفاء	tabl	طبل
ifrot	افراط	tavaqquf	توقف
iftiro	افتراء	tavahhum	توهم
ifsho	افشاء	tajalli	تجلٍ
ixtilol	اختلال	tajammul	تجمل
ixtilot	اختلاط	tajassum	تجسم
iqtido	اقتداء	tajohul	تجاهل
ihonat	اهانة	talbis	تلبيس
kadar	كدر	tanvir	تنوير
luzum	لزوم	taraka	تركة
muboraza	مبارزة	tarahhum	ترحم
mudoxala	مداخلة	tarvij	ترويج
mukolama	مكالمة	tatabbu	تتبع
munoqasha	مناقشة	tafriq(a)	تفرقة (تفريق)
muohada	معاهدة	taxayyul	تخيل
murofaa	مرافعة	tashrih	تشريح
muroqaba	مراقبة	ta'lif	تأليف
musoada	مساعدة	ta'xir	تأخير
farsh	فرش	taqrir	تقرير
fikrat	فكرة	tag'ayyur	تغير
xalaf	خلف	tag'ofil	تغافل
xilt	خط	tahayyur	تحير
shuru'	شروع	qarobat	قراية
tahammul	تحمل	g'asb	غصب
tahqiq	تحقيق	g'urub	غروب
favt	فوت	haml	حمل

XULOSA

O'zbek tili leksikasiga o'zlashishi sezilarli darajada ta'sir qilgan 20 dan ortiq til o'zlashmalari mavjud. Shuningdek, tilimizda faol bo'lmasa-da, yana bir qator tillarning o'zlashmalari ham uchrab turadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati" o'z ichiga olgan 80 mingdan ortiq so'z va birikmalarning anchagina qismini arabcha o'zlashmalar tashkil qiladi.

Arab tilidan o'zbek tiliga o'tgan so'zlar, xususan, masdarlar fonetik va semantik jihatdan tadqiq qilinganda, bir qator o'zgarishlar yuz bergani aniqlandi. Bu borada arab adabiy tilining unli fonemalarini kuzatsak, quyidagi fonetik o'zgarishlarning shohidi bo'lamiz:

1. "a" cho'ziq unlisi [ʼ yoki ا] izohli lug'atda o'zbek tilining lablangan, orqa qator, keng unlisi bo'lmish "o" fonemasi bilan ifodalangan.
2. "i" cho'ziq unlisi [ى] lug'atda o'zbek tilining til oldi, tor qisqa unli fonemasi "i" bilan aks ettirilgan.
3. "u" cho'ziq unli [و] esa lug'atda o'zbek tilining lablangan, orqa qator, tor qisqa unli fonemasi "u" bilan ifodalangan.

Izohli lug'at tarkibida qisqa unli fonemalari bo'lgan masdarlar ham kata o'rinni egallaydi. Jumladan, arab adabiy tilining "a" qisqa unli fonemasi lug'atda deyarli o'zgarishsiz aks ettirilgan.

Arab adabiy tilining "i" qisqa fonemasi esa aksariyat arab masdarlarida o'zgarishsiz berilgan bo'lsa-da, u muayyan so'zlarda o'zbek tilining lablashgan, til oldi, o'rta keng "e" unlisi bilan ifodalangan.

O'zlashma masdarlar tarkibidagi undosh fonemalariga kelsak, ular ham fonetik o'zgarishlardan xoli emas. Jumladan, arab tilining sirg'aluvchi, shovqinli, jarangsiz bo'g'iz undosh fonemasi "ح" [h] va sirg'aluvchi, jarangsiz, shovqinli, bo'g'iz undosh fonemasi bo'lmish "ه" [h] fonemalari bo'lgan masdarlar lug'atda sirg'aluvchi, jarangsiz, bo'g'iz undoshi "h" fonemasi bilan aks ettirilgan. Arab tilining chuqur til orqa, jarangsiz, sirg'aluvchi, shovqinli "خ" undosh fonemasi esa o'zbek tilining chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undoshi "x" fonemasi bilan ifodalangan.

Arab adabiy tilining “ث”, “س”, “ص” fonemalarining barchasi o‘zbek tilining bitta jarangsiz, til oldi, sirg‘aluvchi undosh “s” fonemasi bilan aks ettirilgan. (Masalan, sabot, tanqis, ,vasl, nasr, sabr , tamsil, va boshqalar)

Arab adabiy tilining “ذ”, “ز”, “ظ” va “ض” undosh fonemalarining barchasi izohli lug‘atimizda o‘zbek tilining yagona til oldi, sirg‘aluvchi, jarangli undoshi “z” fonemasi bilan berilgan. Chunki “ذ”, “ظ”, “ض” fonemalari o‘zbek tilida uchramaydi.

Mazkur lug‘atda arab tilining “ت” va “ط” fonemalari o‘zbek tilining yagona jarangsiz, til oldi, portlovchi undoshi “t” fonemasi bilan berilgan.

Arab adabiy tiliga xos bo‘lgan, o‘zbek tilida uchramaydigan fonemalardan yana biri bu portlovchi, jarangli, shovqinli bo‘g‘iz undoshi “ع” fonemasi lug‘atda har xil aks ettirilgan:

1) agar “ع” fonemasi o‘zlashma so‘zlarning birinchi o‘zak fonemasi bo‘lsa, u yozilmay, uning o‘rniga faqat uning qisqa yoki cho‘ziq unli fonemalari aks ettiriladi;

2) agar “ع” fonemasi o‘zlashma so‘zlarning o‘zak fonemasi bo‘lib, sukunlangan bo‘lsa, (ya’ni yopiq cho‘ziq bo‘g‘inni hosil qilsa) u yozilmay, uning o‘rniga “tutuq” belgisi qo‘yiladi;

3) agar “ع” fonemasi arabcha so‘zlarning o‘zak fonemalaridan biri bo‘lib, uning muayyan unli fonemalari bo‘lsa va ochiq bo‘g‘indan keyin kelsa, aks ettirilmay, uning o‘rniga unli fonemalari yoziladi;

4) o‘zak fonemalardan biri bo‘lib, yopiq bo‘g‘indan (sukunlangan fonema) keyin kelgan va o‘z unli fonemalariga ega bo‘lgan “ع” fonemasi “tutuq” belgisi va unli fonemani yozib ifodalangan;

5) agar “ع” fonemasi o‘zlashma masdarlarning so‘nggi o‘zak fonemasi bo‘lsa ko‘pincha uning o‘zi ham, unli fonemalari ham izohli lug‘atda aks ettirilmaydi. Ayrim hollarda esa “tutuq” belgisi bilan ifodalangan.

Arab tili fonetikasiga xos bo‘lgan fonemalardan biri “hamza” [ء] dir. Hamza fonemasida ham muayyan fonetik o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi. Ular quyidagilar:

1) agar o‘zlashma so‘zlarning birinchi o‘zagi hamza fonemasidan iborat bo‘lsa, u izohli lug‘atda yozilmay, uning unli fonemalari aks ettiriladi;

2) agar hamza fonemasi arabcha so‘zlarning birinchi o‘zak fonemasi bo‘lib, so‘zning o‘rtasida sukunlangan holda bo‘lsa, u “tutuq” belgisi bilan aks ettiriladi;

3) agar izohli lug‘atdagi o‘zlashma masdarlarning birinchi bo‘g‘ini yopiq bo‘g‘in bo‘lib, ularning ikkinchi bo‘g‘inidagi hamza unli fonemaga ega bo‘lsa, “tutuq belgisi” bilan unli fonema aks ettiriladi;

4) hamza fonemasi o‘zlashma masdarining ikkinchi o‘zak fonemasini tashkil etib, u arab adabiy tilining qisqa “i” unli fonemasiga ega bo‘lsa, u izohli lug‘atda bir o‘rinda o‘zbek tilining old qator, yuqori tor, lablanmagan “i” fonemasi bilan ifodalangan;

5) ayrim o‘zlashma masdarlarda esa hamza o‘zbek tilining til o‘rta, sirg‘aluvchi, jarangli undoshi bo‘lmish “y” fonemasi bilan aks ettirilgan. 6) agar hamza fonemasi arabcha o‘zlashma masdarlarning so‘nggi o‘zak fonemasi bo‘lsa, u o‘zbek tilida o‘z unli fonemalari bilan butunlay aks ettirilmaydi.

O‘zlashma masdarlarning fonetik tahliliga xulosa sifatida shuni qayd etish joizki, arabcha o‘zlashmalarning unli va undosh fonemalarini o‘zbek tilida aks ettirishda o‘ziga xos xususiyatlar mavjud va ularda tovush o‘zgarishi, so‘z oxirida tovush tushishi va so‘z o‘rtasida tovush ortishi kabi fonetik o‘zgarishlar ro‘y bergan.

O‘zbek tiliga I-VIII va X bob, shuningdek, 4 undoshli fe’llarning I bob masdarlari o‘zlashgan. Izohli lug‘at tarkibida ularning soni 1100 dan ortiq. I bob fe’llaridan hosil bo‘lgan masdarlar katta qismni tashkil etadi.

Arabcha o‘zlashmalarning semantik xususiyatlari haqida shuni aytish mumkinki, ularning ma’nolari o‘zbek tili zaminida ma’lum va muayyan o‘zgarishlarni boshidan kechirgan. O‘zlashmalarda ma’no torayishi, ma’no kengayishi, qisman va to‘la o‘zgarishi kabi bir qator o‘zgarishlar yuz bergan. Ularning 420 dan ortig‘i arab va o‘zbek tillarida aynan bir ma’noda qo‘llaniladi. Shunisi e’tiborga loyiqki, masdarlardagi ma’no kengayishi va torayishini tadqiq qilganimizda aksariyat hollarda bu o‘zlashmalar o‘zbek tilida ma’no torayishiga

uchragani ma'lum bo'ldi. Jumladan, "O'zbek tilining izohli lug'ati" tarkibida ma'nosi toraygan arabcha masdarlar 340 dan ortiq. 120 dan ortiq masdarlarning esa ma'nosi kengaygan va 100 ga yaqini o'z ma'nosini butkul o'zgartirgan. Shuningdek, mazkur bitiruv malakaviy ishida hozirda qo'llanilmaydigan masdarlarni ham taqdim etdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARRO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentlari asarlari

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”. - Toshkent:Ma’naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari – Toshkent, 1997.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.

O‘zbek tilidagi manbalar:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, -T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
2. NosirovO., Yusupov M. “An-Na‘im” arabcha-o‘zbekcha lug‘at.- T: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,2003.
3. Jamolxonov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 2005.
4. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –Toshkent.: Fan, 1985.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -T.: Universitet.,2006.
6. Hojiyev A. O‘zbek tilshunosligi atamalarining izohli lug‘ati. –T.: O‘qituvchi, 2001.
7. Jumaniyozov O. O‘zbek tilidagi german tillari o‘zlashmalari. - T.,1982.
8. RustamovaS. “Arab tilining fonetikasi”. T., 2000.
9. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – T.: Universitet, 2000.
- 10.Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2002-yil.
- 11.Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. I qism. - T.: O‘qituvchi, 1980.
- 12.Talabov E. Arab tili. –T.: O‘zbekiston, 1993.
13. Qodirov T. Arab adabiy tilining fonetikasi. – T.: ToshDSHI, 2013.

14. Qodirov T.Sh., Aliyev D.I. Arab tili leksikologiyasi. – Toshkent, 2010.
15. Jomonov R. Soʻz oʻzlashtirishdagi asosiy lisoniy omillar. Oʻzbek tili va adabiyoti. //2014.
16. Hamrayeva Y. Oʻzbek tilining oʻquv ideografik lugʻatini yaratish tamoyillari: Filol. fan. nomz....diss. avtoref. –T., 2010.
17. Rahmonov T.P. Hozirgi oʻzbek tilidagi arabcha oʻzlashma soʻzlar semantik tuzilishidagi oʻzgarishlar. filol. fan. nomz.... dis. avtoref. -Toshkent, 1994.
18. Eshonqulov B. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida arabcha lugʻaviy oʻzlashmalarning paradigmatic asimmetriyaga munosabati. Filol.fan nomzodi...dis.avtoreferati. –Toshkent, 1996.

Rus tilidagi manbalar:

19. Баранов Х.К. Арабско- русский словарь. – М.:Русский язык,1985.
20. Шагал Б.Э. и другие. Учебник арабского языка. – М., 1983.
21. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. – М.: Вост. Лит., 2001.
22. Ковалев А.А., Шарбатов Г.Ш. Учебник арабского языка. – М. .: Вост. Лит., 1998.

Arab tilidagi manbalar:

23. حبيب مغنية ”الوافي في النحو و الصرف“ بيروت. ٢٠٠٤
24. حفني ناصف محمد دباب. الدروس النحوية. القاهرة. ٢٠٠٩

Badiiy adabiyotlar:

25. Ismoiliy M. Fargʻona tong otguncha. – T.: Sharq, 1995.
26. Oybek. Nur qidirib. – T.,1957.
27. Oybek. Navoiy. . – T.: Sharq, 1996.
28. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – T.: Sharq, 2003.
29. Qodirov P. Oʻqituvchi. – T.: Sharq, 2003.

32. A.Qodiriy. O‘tkan kunlar. . – T.: Sharq, 2016.
33. A.Qodiriy. Mehrobdan chayon. – T.: Sharq, 2007.
34. A.Qodiriy.Obid ketmon. – T.: Sharq, 2007.
35. S.Siyoyev.Avaz. – T.: Sharq, 2000.
36. A.Qahhor. Tanlangan asarlar. Ijild.– T.: Sharq, 1993.

Internet manbalari:

- 37.<https://fa.wikipedia.org/wiki/>
- 38.http://www.aftabir.com/entertainment/communications/media/groupmedia_book_study_psychbiology_cognition.php
39. <http://www.gldv.org/cms/gldv.php>
40. <http://lexikon.anaman.de/lexikon.htm>